

NUTQIY MULOQOT VA INTERNET MULOQOTINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Nosirov Nasibillo Xalilillo o'g'li,
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi*

Virtual muloqot haqida gapirishdan oldin biz nutqiy muloqot haqida o'zgina to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki axborot beruvchi ham, qabul qiluvchi ham bir-birini til orqali tushunadi. Axborot beruvchi (adresant) va uni qabul qiluvchi (adresat) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanadi, aks holda muloqotning persektiv jihati amalga oshmaydi. Insonning hayotiy faoliyati davomida tildan foydalanishining o'ziga xos xususiyati eng muhim muloqot-aralashuv quroli bo'lishi bilan birga anglash, fikrlash vositasi hamdir. Shaxslararo muloqot insonning shaxs sifatida shakllanishida asosiy mexanizm hisoblanadi. Bu jarayon go'dakning oiladagi yaqinlari bilan o'zaro muloqotidan boshlanib, to rasmiy doiradagi shaxslarning Xalqaro muloqot shakllaridagi ishtirokigacha bo'lgan turli-tuman daraja va toifadagi nutqiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Nutqiy muloqotning asosiy maqsadi til vositasida turli xil ma'lumotlarni o'zaro almashishdir.

Til muloqot vositasi ekanligini doimiy ravishda ta'kidlagan holda, nima uchun nutqiy muloqot birikmasini tanlaymiz? Masalaning mohiyatini yoritish uchun dastlab til va nutq dixotomiyasini anglab olish talab etiladi.

Ilmiy manlarda til va nutq hodisalarini farqlash hamda tadqiqot ob'ekti sifatida belgilash g'oyasi dastlab V.Gumboldt tomonidan ilgari surilganligi e'tirof etiladi. F.de Sossyur lisoniy faoliyat (Languege) ning individuallik va sotsiallik belgilarini o'zida mujassam etgan butunlik ekanini ta'kidlaydi va lisoniy faoliyat doirasida ikki asosiy tushunchani – **til** (langua) va **nutq** (porole)ni ajratdi. Garchi til-nutq dixotomiyasi F.de Sossyurgacha V.Gumboldt, yosh grammatikachilar maktabi va Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilingan bo'lsa ham, lekin F.de Sossyur uni lingvistik sistemaning markaziga aylantirdi. A.Nurmonov «til va nutq» dixotomiyasining shakllanish jarayonini tahlil qilar ekan, Alisher Navoiy tilshunos olim sifatida Vilgelm Gumboldt va F.de Sossyurdan ancha oldin til va nutq xodisalarini bir-biridan farqlaganini ta'kidlaydi¹.

“Va xayolimig'a mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlarig'a ulug' haq sobit qildimki, o'z alfoz va iboratlari haqiqati va o'z til va lug'atlari kayfiyatidin voqif bo'ldilar va forsiygo'ylarning iborat va alfoz bobida ta'n qilur sarzanishidin qutuldilar. (Tabdili: Xayolimiga shunday keladiki, turk xalqining so'z ustalari oldida ulug' vazifani

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.80.

bajardim, buning blan ular o'z so'zlari iboratlari haqiqatidan va o'z til va lug'atlari kayfiyatidan xabardor bo'ldilar va forsigo'ylarning nutq va so'z bobida qilib kelgan ta'na va sarzanishlaridan qutuldilar.)"²Darhaqiqat, bu o'rinda Alisher Navoiy til va lug'at umumiylikni ifodalovchi mohiyat, nutq va so'z esa xususiylikni ifodalovchi tajalli ekanligiga ishora qilar ekan, har bir ijodkor til imkoniyatlari va lug'at boyligidan foydalanib, so'zni istagancha jilolantira olishi, nutqiy ifodalar yaratishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu olamda virtual dunyo internet atamalarisiz insoniyat o'z hayotini tasavvur qila olmaydi. Va bu rivojlanish o'z –o'zdan virtual muloqotning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Internet paydo bo'lishi bilan ommaviy kommunikatsiya hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim voqeligiga aylandi. Umuman, hayotning deyarli barcha aspektlari, jumladan, kundalik maishiy xizmat, savdo-sotiqdan tortib, axborot va ta'lim, iqtisodiyot va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va hatto, davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko'cha boshladi. O'lis masofadan turib muloqot qilish, nafaqat o'qish va yozish, balki eshitish, ko'rish imkoniyatlarining yuzaga kelishi virtual muloqotni keskin ommalashtirdi. Shu tariqa, butun insoniyat uchun yangi kommunikativ muhitning vujudga kelishi va juda qisqa vaqt ichida rivojlanishi ijtimoiy omil sifatida nutqiy faoliyatning yangi shakllarini vujudga keltirdi.

Serqirra va murakkab antropotsentrik voqelik sifatida Internet muloqoti turli jihatdan o'rganila boshladi. Til tashuvchisi uchun yangi ifoda shakllarining paydo bo'lishi nuqtai nazaridan Internet matnlarining lingvistik jihatlari tadqiqot ob'ektiga aylandi.³

Elektron ommaviy axborot vositalari nuqtai nazaridan Internet muloqotining o'ziga xos xususiyatlari, Internet jurnalistikasi masalalari turli jihatlardan tadqiq etila boshlagan bo'lsa-da⁴, o'zbek tilshunosligi tadqiqotlar oqimida Internet muloqotida shaxslararo nutqiy faoliyat turlarining o'rni va ularni reallashtiruvchi lingvistik vositalar, ijtimoiy tarmoqlar materiallari og'zaki va yozma shakllarining nisbati hali o'rganilmagan.

Xususan, shaxslararo muloqot tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. Shunday ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy tarmoqlardir. «Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan e'lon qilinayotgan ma'lumotlar, qisqa vaqt ichida shaxsiylik doirasidan chiqib ketdi. Ayni paytda deyarli har qanday ahamiyatga ega

² Аlisher Navoiy. Muhoqamatul-lug'atayn. - Б. 24// http://ferlibrary.uz/f/alisher_navoiy_muhokamatul_lugatayn

³ Қаранг: бу ҳақда ишнинг кириш қисмида батафсил маълумот берилган.

⁴Алимов Б.С. Хорижий ва миллий оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистон имижини яратиш тамойиллари ва истикболи. (1991-2017 йиллар ОАВ материаллари мисолида). Филол. фан бўйича фалс. д-ри... дисс... автореф. – Т., 2018. – 54 б;Рашидова Д., Муратова Н. Интернет журналистика. – Т.: 2007. – 138 б; Қосимова Н. Онлайн журналистика. – Т.: 2019. – 301 б.

jamiyat (yoki muayyan mikrojamiyatlar) uchun ushbu ahamiyatli bo'lgan voqealik ijtimoiy tarmoqlarda sharhlanadi va baholanadi. Shu bilan birga, odamlarning shaxsiy muloqotlari ham Internetga ko'chdi; elektron muloqot yuzma-yuz va telefon muloqoti bilan raqobatlasha boshladi»⁵.

Internet muloqoti, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, muloqotning ijtimoiy va texnik imkoniyatlari kun sayin kengayib bormoqda:

1. Tarmoqlar odamlar o'rtasidagi shaxslararo muloqot uchun mo'ljallangan bo'lib, foydalanuvchilarning shaxsiy yozishmalari asinxron tarzda zamon va makon jihatdan chegaralanmagan. Masalan, chat yoki forum muloqotida ishtirokchi xohlagan paytida kirib o'z fikrini yozib qoldirishi yoki, boshqalarning yozib qoldirgan fikrlari bilan tanishishi mumkin. Alohida vaqt, imkon, sharoit talab qilmasligi muloqotchilar uchun muhim qulaylik hisoblanadi.

2. Axborot almashish uchun turli xil foto, video, ovozli yozuv va hokazolardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

3. Katta va kichik virtual guruhlarda (sinf, fakultet, ish joyi, qarindoshlar, do'stlar, hamfikrlar va boshqalar) muloqot qilish.

4. Kommunikatorlarning shaxsiy maqomni belgilash, muloqot erkinligi hamda lingvistik va audiovizual vositalarning cheksiz tanlovi.

5. Xalqaro biznes imkoniyatlarini kengaytirdi, xususan, onlayn tijorat vakillarining mijozlar bilan uzluksiz (24/7) muloqoti kafolatlandi.

6. Til iqtisodi uchun juda qulay sharoitlar mavjud bo'lib, fikrni qisqa shaklda (masalan, emodzi, piktogramma va h.k.) ta'sirli yetkazish imkonini beradi, demak minimal ifoda vositalari orqali maksimal darajada axborot almashilishi mumkin.

Kommunikativ muhit parametrlarining bunday tubdan o'zgarishi virtual muloqot kuchli attraktor sifatida butun insoniyatni o'ziga tortib olmoqda. Xatto, bir paytlar televizorni ham qiyinchilik bilan qabul qilgan o'zbek segmentida katta yoshdagi otaxon-u onaxonlarning ham oila a'zolari va yaqinlari bilan qulay muloqot vositasiga aylanganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Internetning o'zbek segmenti tilining mavjudligi va o'ziga xos jihatlarini o'rganish mavzusi bugungi kunda har jihatdan yangi bo'lsa-da, yaqin kelajakda u tilshunoslik tadqiqotlarida muhim o'rin egallashi aniq bo'lib qoldi. Sababi, bugungi kunda juda qisqa davr ichida internet eng ulkan axborot manbai hamda butun insoniyat faoliyat yuritayotgan axborot almashish vositasi bo'lib qoldi. Uning samaradorligi, uzoq va yaqin masofalardagi foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqaning mavjudligi qulay muloqot vositasi sifatida barchani o'ziga birdek jalb qilib qo'ydi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida, bu xatto zaruratga aylandi. Ijtimoiy jamiyat doirasidagi idoralararo hujjatlar

⁵ Марченко Н. Г. Социальная сеть “ВКонтакте”: лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2013. – 21 с.

almashuvi, masofaviy ta'lim, shaxslararo kundalik muloqot kabi inson foliyatiga oid jihatlar shuni taqozo etmoqda.

«Albatta, bugungi kunda hayotimizning deyarli hech bir sohasini internetsiz tasavvur qilib bo'lmay qolyapti. Bu bir tarafdin mislsiz qulayliklar taqdim etmoqda. «1995 yildan boshlab O'zbekiston ham internet tarmog'ida o'zining ikkinchi daraja domen nomiga – .uz domeniga ega bo'ldi. Hozirda .uz domen hududida 82 mingdan ortiq saytlar ro'yxatga olingan bo'lsa, yurtimizdagi internet foydalanuvchilari soni 22 million nafarga yetgan (albatta, shundan 19 milioni mobil internet foydalanuvchilari ekanini ham aytish joiz)»⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.80.
2. Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. - Б. 24// http://ferlibrary.uz/f/alisher_navoiy_muhokamatul_lugatayn
3. Қаранг: бу ҳақда ишнинг кириш қисмида батафсил маълумот берилган.
4. Алимов Б.С. Хорижий ва миллий оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистон имижини яратиш тамойиллари ва истиқболи. (1991-2017 йиллар ОАВ материаллари мисолида). Филол. фан бўйича фалс. д-ри... дисс... автореф. – Т., 2018. – 54 б; Рашидова Д., Муратова Н. Интернет журналистика. – Т.: 2007. – 138 б; Қосимова Н. Онлайн журналистика. – Т.: 2019. – 301 б.
5. Марченко Н. Г. Социальная сеть “Вконтакте”: лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2013. – 21 с.

⁶<https://daryo.uz/k/2020/09/03/uchinchi-axborot-inqilobining-dunyoga-kelishi>